**O'zbekiston davlat jahon tillari universitetiga biriktirilgan 22-Mehribonlik uyida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi**

# MA'LUMOT

| № | Berilgan topshiriq | Ijro holati | 2021 yilda sarflangan mablag'lar miqdori (mln.so'mda) |
|---|---|---|---|
| 1 | a) Mehribonlik uylariga tarbiyachilar tayyorlash, kutubxona fondini boyitish, bolalarni axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, aniq va tabiiy fanlarga o'rgatish va ularning kelgusida oliygohlarga kirishiga ko'maklashish muhitini shakllantirish, teatr va konsertlar tashkil etishga mas'ul etib belgilansin; |  O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan vazifalar ijrosini ta`minlash bo'yicha O'zbekiston davlat jahon tillari bir qator ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, 2021-yilning 11-avgustida ushbu topshiriqlar ijrosini ta'minlash naqsadida universitet rektorining 336-sonli buyrug'i va Yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Shu bilan birga O'zbekiston davlat jahon tillari univristeti rektori Ulug'bek Azizov hamda universitet jamoasi 24-sentabr kuni Toshkent shahridagi 22-sonli Mehribonlik uyiga tashrif buyurib, tarbiyalanuvchilar bilan uchrashdi.  Uchrashuvni univristeti rektori Ulug'bek Azizov ochib berdi. Rektor Ulug'bek Azizov o'z sozida 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga chet tillarini o'rganishning afzallik jihatlari, kelgusida bolalar qaysi kasb tanlashlarida qat'iy nazar xorijiy tillarni bilish bugungi kunning talabai ekani va chet tillarni o'rganish orqali dunyoning rivojlangan davlatlarida o'qish imkoniyatlariga ega bolishlari mumkinligi haqida so'zlab berdi. | |

Scanned by TapScanner

| | | | |
|---|---|---|---|
| | |  O'z navbatida 22-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ham rektor Ulug'bek Azizovga o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilishdi. Tashrif cho'ida O'zbekiston davlat jahon tillari univristeti rektori Ulug'bek Azizov hamda universitet jamoasi tomonidan olib borilgan 200 dan ortiq badiiy kitob va o'quv qo'llanmalar 22-sonli Mehribonlik uyiga sovg'a tarzida taqdim qilindi. Mehribonlik uyida chet tillari (ingliz, koreys, nemis, fransuz, arab, ispan, xitoy, yapon) to'garaklari tashkil etildi. Tarbiyalanuvchilar qiziqishlariga qarab guruhlarga ajratib olindi va tanishuv darslari boshlab yuborildi.<br> Shuningdek, 18-oktabr sanasida Universitet xotin-qizlar maslahat kengashi tashabbusi bilan "Maqsadni to'g'ri tanlash – muvaffaqiyat kaliti" mavzusida davra suhbati, 3-dekabr sanasida Sharq filologiyasi fakulteti tomonidan "Ko'ngil uchun yashaylik bir kun"  nomli bayram dasturi, 18-dekabr sanasida Ingliz filologiyasi fakulteti talabalari hamda Universitet Yoshlar Ittifoqi faol talabalari tomonidan "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" nomli sahovat tadbiri, Ingliz tili uchinchi fakulteti tomonidan 16-oktyabr sanasida "Let's make them happy" ("Keling ularni baxtiyor qilamiz" ingliz tilidagi bayram tadbiri)lari tashkil etildi. | 3 mln. so'm (homiylik mablag'lari hisobidan))<br><br>1,5 mln. so'm (homiylik mablag'lari hisobidan) |
| | b) abituriyentlar seleksiyasini shakllantirish maqsadida | Abituriyentlar seleksiyasini shakllantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning qiziqishidan kelib chiqib, ingliz, koreys, nemis, fransuz, arab, ispan, xitoy, yapon to'garaklari tashkil etildi. | 3.2 mln. so'm |

Scanned by TapScanner

| | | | |
|---|---|---|---|
| | tarbiyalanuvchilarning qiziqishidan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarining yetakchi professor-o'qituvchilari haftada kamida ikki marotaba to'garaklar tashkil etsin va buning uchun ularga alohida ustama haq to'lanishi yo'lga qo'yilsin; | To'garaklarda jami 85 ta bitiruvchi tarbiyalanuvchilar jalb etildi. Ularga 5 ta professor-o'qituvchilar biriktirildi. Universitet rektorining 2021-yil dekabrdagi 500-sonli buyrug'i asosida 22-Mehribonlik uyida xorijiy tillardan to'garaklar o'tib kelayotgan 2 nafar professor-o'qtuvchilarning oylik ish haqlariga ustamalar belgilandi va to'lab kelinmoqda. 3 nafariga yanvar oyidan boshlab ustama belgilash ko'zda tutilgan.<br>(To'garaklar tashkil etishga mas'ul professor-o'qituvchilar ro'yxati va ularga ajratilgan alohida ustama haq bo'yicha buyruqlar ilova qilinmoqda) | |
| | v) Oliy ta'lim muassasalari Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga bitiruvchi kurs a'lochi talabalarini biriktirsin va ularga motivatsiya berib borish amaliyotini yo'lga qo'ysin; |   Mehribonlik uyining 85 nafar tarbiyalanuvchilariga bitiruvchi kurs a'lochi talabalari biriktirildi. Biriktirilgan a'lochi talabalar va tarbiyalanuvchilar o'rtasida uchrashuvlar o'tkazilib, tarbiyalanuvchilarni kelajakda kasb tanlashida ko'maklashish, qiziqishlarini to'g'ri shakllantirish, qo'llab-quvvatlash, xorijiy tillarni chuqur o'zlashtirishda yaqindan yordam berib kelmoqda. | 0 so'm |

Scanned by TapScanner

| | | | |
|---|---|---|---|
| | |    | |
| | d) Ushbu maqsadlarda oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'larining 5 foizigacha bo'lgan miqdorini sarflashga ruxsat berilgani belgilab qo'yilsin; | Yuqoridagi kabi tadbirlarni tashkil etishda universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan quyidagi ishlar amalga oshirildi: Universitet rektorining 2021-yil dekabrdagi 500-sonli buyrug'i asosida 22-Mehribonlik uyida xorijiy tillardan to'garaklar o'tib kelayotgan 2 nafar professor-o'qtuvchilarning oylik ish haqlariga ustamalar belgilandi va to'lab kelinmoqda. Rektorning 2021-yil 15-dekabedagi 509-sonli buyrug'i asosida Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga motivatsiya berish va koreys tilini o'rgatish bo'yicha faollik ko'rsatgan Sharq filologiyasi fakulteti talabasi Mamatqulova Nilufar Sayidmo'min qizi bazaviy stipendiyaga nisbatan to'rt baravar miqdorida moddiy rag'batlantirildi.<br>Shuningdek, Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari uchun Yangi yil bayram dasturi tashkil etish bilan birga tarbiyalanuvchilarga Yangi yil sovg'alari taqdim qilindi. Mehribonlik uyi Axborot resurs markazi uchun 200 dan ortiq badiiy kitoblar, lug'atlar taqdim qilindi. | 5.4 mln so'm<br>3 mln. So'm (homiylik mablag'lari hisobidan)) |
| | e) Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchalarida amalga oshirilgan ishlarni ommaviy | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgsutdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari | 0 so'm |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va vazirlik veb-saytida keng yoritib borsin. | to‘g‘risida”gi PQ-5215-son qarori hamda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektorining 2021-yil 11-avgustdagi 336-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar OAV orqali hamda universitet ijtimoiy tarmoqlari va rasmiy veb-sahifasida yoritib borildi. Quyida ushbu xabardan linklar taqdim etilmoqda:<br>http://uzswlu.uz/news/view/978<br>http://uzswlu.uz/news/view/966<br>http://uzswlu.uz/news/view/964<br>https://t.me/UzSWLU/3731<br>https://t.me/UzSWLU/3738<br>https://t.me/UzSWLU/3956<br>https://t.me/UzSWLU/3983<br>https://t.me/UzSWLU/4172<br>https://t.me/UzSWLU/4645<br>https://t.me/UzSWLU/4979<br>https://t.me/UzSWLU/4988 | |
| | **Jami** | | **12.9 mln so‘m** |

**Yoshlar masalalari va ma’naviy-**
**ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor** **H.Hakimov**

Scanned by TapScanner